

“O‘zbektelekom” AKda va filiallarda 2025-yilda ochiqlikni ta‘minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6247-son hamda 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmonlariga muvofiq fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta‘minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash hamda faoliyatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etilgan.

Mazkur Farmonlarga muvofiq barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) tomonidan Ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxati tasdiqlangan.

2022-yil 1-avgustdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarida (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etilgan.

“O‘zbektelekom” AK (keying o‘rinlarda – Kompaniya) ham ro‘yxatga kiritilib 2023-yildan buyon Ochiqlik indeksida baholanib kelinmoqda. 2023-yil natijalariga asosan Kompaniya 38,9 bal to‘plab 96 o‘rin egallagan (qizil toifa).

Kompaniya O‘zbekiston Respublikasining yirik telekommunikatsiya operatori bo‘lib, mamlakat bo‘ylab simli va mobil aloqa, internet, televideniye, ma‘lumotlar markazlari (data-markazlar), videokuzatuv, kiberxavfsizlik hamda boshqa raqamli xizmatlarni taqdim etadi.

Yuqoridagi ko‘rsatkich Kompaniyaning faoliyatiga ta‘sir qilishi, raqobatbardoshligini pasaytirishi, investorlar tomonidan ishonchni kamayishi kabi salbiy holatlarga olib kelishi ehtimoli mavjud bo‘lgan.

Ochiqlik indeksida yuqori natijalarga erishish maqsadida mazkur yo‘nalishni nazorat qilish Kompaniyaning Komplaens departamentiga yuklatildi.

Komplaens departamenti tomonidan Kompaniyaning rasmiy veb-sayti qayta ko‘rib chiqilib Farmonlar talablariga muvofiqlashtirildi. Shuningdek, Ochiqlik indeksi mezonlari bo‘yicha mas‘ullar tayinlandi va mas‘ullar faoliyati muvofiqlashtirildi.

Natijada 2024-yil yakunlari bo'yicha Ochiqlik indeksida Kompaniya 69,94 bal to'plab 54-o'ringa ko'tarildi (sariq toifa).

2025-yilda Ochiqlik indeksi quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini masofadan monitoring qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 910-son qarori bilan tasdiqlangan namunaviy shakllar asosida joylashtirilishi yo'lga qo'yildi;

Budjet jarayonining ochiqligini ta'minlashga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2021-yil 27-apreldagi "Budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 26-son buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 7-mayda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3299) tasdiqlangan shakllarda joylashtirilishi yo'lga qo'yildi;

Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishi 2025-yildan yo'lga qo'yildi;

Kompaniya rasmiy veb-sayti tartiblashtirildi.

Kompaniya xodimlari o'rasida Ochiqlik indeksi bo'yicha muntazam ravishda tushuntirish ishlari tashkil qilingan.

Aholiga qulayliklar yaratish maqsadida Kompaniya faoliyati haqida ma'lumotlar va yangiliklar Kompaniyaning rasmiy veb-saytidan tashqari, matbuot xizmati tomonidan telegram ijtimoiy tarmog'i orqali ham yoritib borilmoqda. (t.me/uztelecompress)

Kompaniya boshqaruv raisiga to'g'ridan-to'g'ri sayt orqali murojaat yo'llash imkoni yaratilgan. (<https://uztelecom.uz/uz/kompaniya-haqida/rahbariyat/xasanov-nazirjon-nabijanovich>)

Bundan tashqari Kompaniyada ESG tizimi yo'lga qo'yilib xalqaro reytingan erishdi. Sustainable Fitch xalqaro reyting agentligidan level 2 (73) ball ESG reytingi berildi. Bu o'z navbattida Kompaniya xalqaro ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tizimlarini yo'lga qo'yganligi hisoblanadi.

Shu bilan birga, Kompaniya vakillari va filiallari tomonidan 2025-yil davomida jismoniy shaxslar va yuridik shaxs vakillari uchun sayyor qabullar tashkil etildi. Jumladan;

- Toshkent viloyati, Ohangaron tumanida;
- Farg'ona viloyati, Quvasoy tumanida;
- Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanida;
- Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanida;
- Andijon viloyati, Baliqchi tumanida;
- Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanida;
- Jizzax viloyati, Forish tumanida;

- Samarqang viloyati, Bulung'ur tumanida;
- Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanida;
- Navoiy viloyati, Zarafshon tumanida;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanida;
- Namangan viloyati, Chust tumanida sayyor qabullar tashkil etildi.

Shuningdek, aholi va yuridik shaxslar vakillari tomonidan kelib tishgan murojaatlar doimiy ravishda o'rganib chiqib o'z vaqtida javoblar berib kelinmoqda.

Murojaatlarning soni 4557 ta, shundan qanoatlantirilgani 4286 ta, umumiy tushuntirish berilgani 134 ta, rad etilgan 3 ta, ko'rmasdan qo'ldirilgani 46 ta, tugatilgani 78 ta, ma'lumot uchun qabul qilingani 10 tani tashkil etgan.

Kompaniyaning ochiqlik prinsiplariga sodiq qolgan holda amalga oshirilayotgan ishlari izchil davom ettiriladi.